

## Buvijonim liboslari xoc-u mos

☒ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2019-yil 8-oktyabrdagi 87-02-2586 - sonli xatining ijrosini ta'minlash bilan birqatorda talaba qizlarimizni milliy liboslarmizni targ'ib qilish maqsadida Joriy yilning 17-yanvarida institutda "Buvijonim kiygan liboslar" ma'naviy-ma'rifiy tadbiri o'tkazildi. Libos — kishining tashqi ko'rinishi, ma'naviy dunyosi, tafakkuri hamda ichki xislatlarini o'zida namoyon eta olish xususiyatiga egadir. Har bir kishi o'zi kiygan libosi orqali boshqalar tasavvurida kim va qanday odam ekanligini ko'rsatib beradi.

Ushbu tadbirda institutning GIM va GTQfakulteti talaba qizlari va H.Olimjon nomli mahxalla fuqarolar yig'ini mutaxassis M.Abduraxmanova va Lashkarbegi MFY mutaxassis Z.Rasuliy va professor-o'qituvchilar faol ishtirok etishdi. Bugungi kunda yurtimizda kiyinish madaniyatiga bo'lgan e'tibor talab darajasi sifatida ko'rilmogda. Ayni kunlarda "Ommaviy madaniyat" ta'siri ostida Yevropa mamlakatlari hozirda urfga kirgan "yirtiq-yamoq" kiyimlarni biz ko'cha-ko'ylarda yoshlarmizda ham ko'rib bormoqdamiz. Ochig'i oxirgi paytlarda bularni ko'raverib, ajablanmay ham qo'ydik.

Z.Rasuliy so'zga chiqib, ushbu tanlovnin o'tkazishimizdan asosiy maqsad esa yoshlarmizni ma'naviyatida tarixiy qadriyatlarimizga bo'lgan e'tiborini oshirish, kelajakda ular barkamol inson bo'lib tarbiya topishiga erishishdir. Albatta, buning zamirida yoshlarmizning kiyinish madaniyatiga bo'lgan munosabati yaxshilanadi, shu bilan birga o'zbek milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashda davom etadi.

**Institut xotin-qizlar qo'mitasi b.t.raisi Z.Xafizova axboroti**

**Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov**